

## 2020- yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lamini, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejatishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

### 2020- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar sohasi**—bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infra tuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

9788  
birlik

Ularning umumiy sonidagi ulushi

63,5 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari

114,9 %

2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 9,8 mingtaga yetdi yoki ularning umumiy sonini 63,5 % ini tashkil etdi. 2019- yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 14,9 % ga oshdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3236,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 510,0 mlrd. so'mga oshdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.




**Xizmatlar**—iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 44,6 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

**Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)**




Eng katta ulush Guliston (44,6 %), Yangiyer (7,8 %) shaharlari, Sirdaryo (13,5 %) va Boyovut (5,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Shirin (3,2 %) shahri, Guliston (4,1 %), Sardoba (3,4 %), Oqoltin (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi 42,5 % ni tashkil etgan.

Oqoltin tumanining ulushi esa eng past –3,0 % ni ko'rsatgan.

## Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, % da (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)



Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Guliston (114,0 %), shahri, Guliston (109,9 %), Boyovut (108,0 %) Sirdaryo va Xovos (107,3 % dan) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Yangiyer (103,9 %), Shirin (103,0 %) shaharlari, Sayxunobod (86,1 %) va Sardoba (103,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, viloyatning har bir iqtisodiy tumani va shaharlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Ko'rilayotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Guliston shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 286,7 mlrd. so'mga oshdi va 1444,4 mlrd. so'mga yetdi.

## Tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3236,8</b>	<b>108,5</b>	<b>3791,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1444,4	114,0	15855,4
Shirin	104,7	103,0	5569,0
Yangiyer	251,5	103,9	5741,5
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	180,5	108,0	1383,0
Guliston	131,7	109,9	1797,0
Mirzaobod	177,4	106,4	2391,1
Oqoltin	95,2	106,2	1816,0
Sardoba	111,7	103,4	1681,7
Sayxunobod	142,3	86,1	1829,3
Sirdaryo	436,4	107,3	3380,6
Xovos	161,0	107,3	1672,0

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (436,4 mlrd. so'm), Mirzaobod (177,4 mlrd. so'm), Boyovut (180,5 mlrd. so'm) tumanlari va Yangiyer (251,5 mlrd. so'm) shahrida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 989,4 mlrd. so'mni (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmiga nisbatan ulushi 30,6 %), savdo xizmatlari 860,0 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 26,6 %), transport xizmatlari 523,3 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 16,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 181,4 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 5,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar 112,5 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 3,5 %) tashkil etdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.


*Dastlabki ma'lumotlar*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3236,8</b>	<b>108,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	181,4	113,2
Moliyaviy xizmatlar	989,4	146,8
Transport xizmatlari	523,3	101,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>495,6</i>	<i>102,1</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	78,8	89,7
Savdo xizmatlari	860,0	93,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	71,5	93,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	112,5	93,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,0	98,2
Ijara xizmatlari	64,7	101,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	80,9	98,6
Shaxsiy xizmatlar	69,8	91,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	65,3	90,0
Boshqa xizmatlar	87,2	87,4



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining jamiga nisbatan ulushi, % da  
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)**



Eng yuqori ulush moliyaviy xizmatlar (30,6 %), savdo xizmatlari (26,6 %), transport xizmatlari (16,2 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,6 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,6 %), ijara xizmatlari hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2,0 % dan) va shaxsiy xizmatlarda (2,1 %) kuzatildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiy sohadir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 26,6 % ni tashkil etib, bu 860,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismiga aniqrog'i 69,6 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 24,8 % ga yetdi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar** – bu xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachilik xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 989,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 346,4 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 46,8 % ni tashkil etdi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,7 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,8 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,5 % ni tashkil etadi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar**

*(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)*





*Dastlabki ma'lumotlar*


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalarini, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, tibbiy haydovchilar komissiyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 2,9 mlrd. so'mga ko'payib, 52,0 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiy hajmida uning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,2 % ni tashkil etdi.






*Dastlabki ma'lumotlar*

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmoqda. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida 3791,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 538,0 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 106,5 % qayd etildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (1383,0 ming so'm), Xovos (1672,0 ming so'm) va Sardoba (1681,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (112,3 %) shahrida va Guliston (107,2 %), Boyovut (106,2 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2020- yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



*Daslabki ma'lumotlar*

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Tel: (67) 236-70-00**